

## EDITORIAL LEADERSHIP

### Editor-in-Chief:

**Zukhra Nishonova** – DSc (Psychology), Professor

### Deputy Editor:

**Ranokhon Oripova** – PhD (Pedology), Associate Professor  
*Uzbek National Institute of Musical Arts named after Yunus Rajabi*

### Editorial Board:

**Amina Ruzikulova** – PhD (Psychology), Associate Professor  
*Navoi State Pedagogical Institute*

**Amina Sultanova** – PhD (Psychology), Associate Professor  
*Uzbekistan National Pedagogical University named after Nizami*

**Azam Gaybullaev** – PhD (Psychology), Associate Professor  
*Bukhara State Pedagogical Institute*

**Dilnoza Kodirova** – PhD (Psychology)  
*Bukhara State University*

**Gulbakhor Yadgarova** – PhD (Psychology), Associate Professor  
*Bukhara State Pedagogical Institute*

**Khabiba Yusupova** – PhD (Pedology), Associate Professor  
*University of Tashkent for Applied Sciences*

**Lola Iliyeva** – PhD (Psychology), Associate Professor  
*Tashkent Institute of Chemical Technology*

**Mirzokhid Yunusov** – PhD (Pedology), Senior Lecturer  
*Fergana State University*

**Nasibakhon Akhmedova** – PhD (Pedology), Associate Professor  
*Fergana Region Pedagogical Skills Center*


**Nilufar Akhmedova** – PhD (Pedology)  
*Customs Institute of the State Customs Committee*

**Ozodakhon Urinova** – PhD in (Pedology), Associate Professor  
*Fergana State University*

**Rano Ismaylova** – PhD (Psychology), Associate Professor  
*Alfraganus University*

**Sarvinoz Kosimova** – PhD (Psychology), Associate Professor  
*Bukhara State University*


**Shuhrat Kudayberganov** – PhD (Pedology), Associate Professor  
*Urgench State Pedagogical Institute*



## PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE TEACHER'S PERSONAL IMAGE AND THE CHARACTERISTICS OF TEACHER-STUDENT INTERACTION

Dilafroz Turayeva<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> PhD in Psychological Sciences, Associate Professor, Tashkent International University of Chemistry.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19486003>

**Key words:** *quality of education, teacher-student collaboration, socio-psychological relations, pedagogical activity, digital environment, student personality, motivation, cluster-associative analysis.*

### ABSTRACT

The purpose of this study is to identify the socio-psychological foundations of teacher-student collaboration in the process of improving the quality of education and to analyze the factors ensuring effective interaction. The research employed content analysis, a cluster-associative approach, and Ch. Osgood's semantic differential method. Empirical data were collected from teachers and students of general secondary education institutions. The findings reveal that teachers' perceptions of students include both positive traits (activity, giftedness, technological literacy) and negative tendencies (lack of discipline, attention deficit, dependence on the digital environment). Significant differences were also identified in the evaluative approaches of primary and secondary school teachers. In conclusion, the study confirms the strong influence of the digital environment on modern students' personalities and substantiates the need for individualized approaches, adaptation of motivational mechanisms, and improvement of the socio-psychological educational environment.

## O'QITUVCHI SHAXSIY OBRAZINING PSIXOLOGIK TAHLILI VA O'QITUVCHI-O'QUVCHI O'RTASIDAGI O'ZARO MULOQOT XUSUSIYATLARI

**Kalit so'zlar:** *ta'lim sifati, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi, ijtimoiy-psixologik munosabatlar, pedagogik faoliyat, raqamli muhit, o'quvchi shaxsiyati, motivatsiya, klaster-assosiativ tahlil.*

### ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotning maqsadi ta'lim sifatini oshirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining ijtimoiy-psixologik asoslarini aniqlash hamda samarali o'zaro ta'sirni ta'minlash omillarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda kontent-tahlil, klaster-assosiativ yondashuv va Ch. Osgudning semantik differensial metodi qo'llanildi. Empirik ma'lumotlar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari va o'quvchilari ishtirokida shakllantirildi. Natijalar o'qituvchilarning o'quvchilar haqidagi tasavvurlarida ijobiy (faollik, iqtidorlilik, texnologik savodxonlik) va salbiy (intizomsizlik, diqqat tarqoqligi, raqamli muhitga bog'liqlik) tendensiyalar birgalikda mavjudligini ko'rsatdi. Shuningdek, boshlang'ich va yuqori sinf o'qituvchilarining baholash yondashuvlarida sezilarli farqlar aniqlangan. Xulosa sifatida, zamonaviy o'quvchi shaxsiyatiga raqamli muhitning kuchli ta'siri qayd etilib, ta'lim jarayonida individual yondashuv, motivatsion mexanizmlarni moslashtirish va ijtimoiy-psixologik muhitni takomillashtirish zarurligi asoslab berildi.

Jahon miqyosida ta'lim sifatini oshirish masalasi ustuvor ijtimoiy vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Ilm-fan va texnologiya sohalarida yuz berayotgan tezkor va prognoz qilish qiyin bo'lgan o'zgarishlar ta'limning inson xulq-atvorini shakllantirishdagi roli va ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Ta'lim sifati nafaqat ta'lim tizimining institutsional va metodologik imkoniyatlari bilan, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik darajasi bilan ham belgilanadi. 2015-yil 25-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 70/1-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi" global miqyosda inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur hujjatda belgilangan 4-maqсад – "Sifatli ta'lim" – nafaqat bilim berish, balki ta'lim muhitida tenglik, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash zaruratini ham o'z ichiga oladi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida inson omili, xususan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan o'zaro hamkorlikka asoslangan, subyekt–subyekt munosabatlari shakllangan ta'lim muhiti inklyuziv va adolatli sifatli ta'limni ta'minlashning muhim poydevori hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini chuqur o'rganish orqali ta'lim sifatini oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida qayta tadqiq etishni talab etadi. Mazkur yo'nalishda Sh.X. Abdullayeva [15, B.8], M.D. Abdumajidova [16, B.12], F.A. Ablakulov [1, B.7], Yu.M. Asadov [17, B.45], Sh.R. Baratov [18, B.40–43], D.B. Botirova [3, B.3], Sh.A. Eshmatov [27, B.96], A. Jabborov [19, 641–647-b.], F.B. Narziqulova [9, B.16], N.N. Nurmatov [10, B.38], F.A. Olimova [11, B.19], A.I. Rasulov [20, B.83], D.A. Sobirova [21, 345–349-b.], B.E. Toshmatov [22, B.16], D.R. Turayeva [23, B.86], O.E. Hayitov [24, B.4], Z.M. Hayitova [25, B.13], Sh.A. Shakarboyeva [26, B.9], Sh.S. Shoyimova [12, B.11] kabi olimlar tomonidan pedagog kadrlar tayyorlash, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari, pedagogik faoliyat dinamikasi, diagnostik qobiliyatlar, kompetensiya va ijtimoiy intellekt masalalari keng yoritilgan.

Ta'lim psixologiyasi, xususan, o'qituvchi–o'quvchi munosabatlari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham keng ko'lamda o'rganilgan. Jumladan, H. Borko [2, B.2], P. Dalin [4, B.5], D. Muijs [8, B.6], C. Hajisoteriou va hammualliflar [5, B.10], H. Le, J. Janssen va T. Wubbels [7, B.10], Shneider va C.E. Wimberley [13, B.18], X. He va Y. Wang [14, B.2], shuningdek, L. Xu va Q. Yang (2019) [6, B.5] mazkur muammoni turli nuqtayi nazardan tadqiq etganlar. Mazkur ilmiy izlanishlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini kompleks tarzda yoritadi. Xususan, Sh.D. Ablakulov, F.A. Olimova, Sh.S. Shoyimova pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, kreativligi hamda stressga chidamliligini tahlil qilgan bo'lsa, D.B. Botirova, N.N. Nurmatov, B.E. Toshmatov pedagogik faoliyatda kasbiy so'nish, frustratsion tolerantlik va samaradorlikni belgilovchi omillarni o'rgangan. F.B. Narziqulova va Z.M. Hayitova o'qituvchi imiji hamda kasbiy shakllanishining ijtimoiy-psixologik sharoitlariga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, Sh.X. Abdullayeva, M.D. Abdumajidova, Sh.A. Eshmatov, A.I. Rasulov, D.R. Turayeva kabi mahalliy olimlar o'qituvchi shaxsi, ustoz–shogird munosabatlari va pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilganlar.

Xorijiy tadqiqotchilar – H. Borko, R. Lalik, E. Tomchin, T. Wubbels, M. Brekelmans, D. Muijs, C.E. Wimberley, L. Xu va Q. Yang – tomonidan o'qituvchi–o'quvchi munosabatlari, pedagogik hamkorlik, ta'lim samaradorligi hamda o'quv natijalariga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Bundan tashqari, P. Dalin, R. Giallo va E. Little, C. Hajisoteriou, X. He va Y. Wang, H. Le, J. Janssen kabi olimlar ta'lim muhitini takomillashtirish, sinfdagi ijtimoiy-psixologik jarayonlar samaradorligini oshirish hamda o'qituvchi–o'quvchi hamkorligini rivojlantirish masalalarini o'rganishgan. Umuman olganda, mazkur ilmiy ishlarda o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy kompetensiyasi hamda o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlari ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida asoslab berilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – ta'lim sifatini oshirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining ijtimoiy-psixologik asoslarini aniqlash hamda samarali o'zaro ta'sirni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyektini sifatida “o'qituvchi–o'quvchi” hamkorligi tizimida o'qituvchi faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayoni tanlandi. Tadqiqotda Toshkent, Buxoro, Sirdaryo, Samarqand va Xorazm viloyatlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari hamda Kimyo xalqaro universitetining sirtqi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirok etdi.

Umumiy hisobda 483 nafar o'qituvchi va 654 nafar o'quvchi jalb etilib, respondentlar soni 1137 nafarga yetdi. Tadqiqot predmeti sifatida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida samarali o'zaro ta'sirni ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik omillar tizimi belgilandi. Ilmiy muammoni kompleks o'rganish maqsadida tadqiqot jarayonida kontent-tahlil, klaster-assotsiativ pedagogik strategiya hamda Ch. Osgudning semantik differensial so'rovnomasi metodlaridan foydalanildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot doirasida maktab o'qituvchilarining o'quvchilar haqidagi tasavvurlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqotning asosiy vazifasi – o'qituvchi ongida shakllangan “o'quvchi obrazi”ni, uning emotsional, intellektual, ijtimoiy hamda xulq-atvor xususiyatlariga doir qarashlarni klaster-assotsiativ metod yordamida tahlil qilishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotda respondent sifatida turli fanlardan dars beruvchi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari jalb etildi. Ulardan “Hozirgi maktab o'quvchisi” tushunchasiga nisbatan erkin shaklda klaster tuzish so'raldi. Olingan javoblar umumlashtirilib, mazmunan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni aks ettiruvchi tasavvurlar tizimlashtirildi.



1-rasm. O'qituvchi nigohida maktab o'quvchisi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning o'quvchilar haqidagi tasavvurlarida ikki asosiy tendensiya yaqqol ajralib turadi. Bir tomondan, ijobiy xususiyatlar – “iqtidorli”, “faol”, “zamonaviy fikrlaydigan”, “axborot texnologiyalarini puxta egallagan” kabi sifatlar qayd etilgan. Ikkinchi tomondan esa tanqidiy va tashvish uyg'otuvchi xususiyatlar – “intizomsiz”, “oson chalg'iydigan”, “internetga qaram”, “tez charchaydigan” kabi tavsiflar kuzatiladi.

Mazkur qarama-qarshi tasavvurlar o'qituvchilarning kasbiy tajribasi, pedagogik yondashuvi hamda o'quvchilar bilan kundalik muloqot jarayonida shakllanishini ko'rsatadi. Demak, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchi haqidagi psixologik obrazi nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy faoliyatdagi shaxsiy kuzatuvlar va muloqot tajribasiga ham tayanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tasavvurlarni chuqur tahlil qilish o'qituvchi–o'quvchi munosabatlari sifatini oshirish hamda ta'lim samaradorligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, odatda, o'quvchilarni beg'ubor, ishonuvchan, mehribon, faol hamda o'rganishga yuqori darajada qiziquvchan shaxslar sifatida tasavvur qiladilar. Bu bosqichda bolalarning yosh psixologiyasiga xos emotsional yaqinlik, yuqori darajadagi ishonch va ta'lim jarayonida hissiy qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyoj yaqqol namoyon bo'ladi. Shunga muvofiq, boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarbiyaviy jarayonda o'quvchilarning his-tuyg'ulari va individual ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratadilar.

Yuqori sinf o'qituvchilari esa o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, tanqidiy tafakkurga ega, mas'uliyat hissini anglaydigan, biroq ayrim hollarda hayotiy realiyatlarni baholashda qiyinchiliklarga duch keluvchi shaxslar sifatida tavsiflaydilar. Ushbu bosqichda o'quvchilarning bilimga bo'lgan motivatsiyasi, jamiyatdagi faol pozitsiyasi hamda kasbiy yo'nalishiga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, yuqori sinf o'qituvchilari o'quvchilarda o'zini ifoda etish ehtiyoji, mustaqil qaror qabul qilishga intilish hamda shaxslararo munosabatlarning murakkablashuvi kabi jihatlarga ko'proq urg'u beradilar. Tadqiqot natijalari boshlang'ich va yuqori sinf o'qituvchilari o'quvchilarni turlicha ijtimoiy-assotsiativ tasavvurlar asosida baholashlarini ko'rsatdi. Bu holat ularning ta'lim jarayonida qo'llayotgan pedagogik metodlari hamda o'quvchilarga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Assotsiativ tasavvurlarni tahlil qilish orqali o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi psixologik yondashuvlarni aniqlash va ularni muvofiqlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqot doirasida o'qituvchilar tomonidan shakllantirilgan klasterlardagi xususiyatlar chastotali tahlil asosida qayta ishlanib, eng ko'p takrorlangan ko'rsatkichlar aniqlashtirildi. Natijalar respondent sifatida jalb etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining javoblari asosida jadval ko'rinishida tizimlashtirildi. XXI asr o'quvchilariga xos eng ko'p uchraydigan xususiyatlar mazkur jadvalda aks ettirildi. "O'qituvchi nigohida maktab o'quvchisi" klasterini shakllantirishda o'qituvchilar javoblari asosida chastotali tahlil usuli qo'llanildi. Xususiyatlar tanlanish chastotasiga ko'ra guruhlanib, vizual tarzda klaster shaklida taqdim etildi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarida raqamli texnologiyalar ta'siri hamda ijtimoiy muhitdagi transformatsiyalar sezilarli darajada aks etishini ko'rsatdi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich smartfondan ortiqcha foydalanish (78,9%) bo'lib, bu raqamli muhitning yoshlar hayotida yetakchi o'rin egallayotganini, ularning kundalik faoliyati, kommunikatsiyasi va qiziqishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Mazkur holat diqqatni uzoq muddat davomida jamlash qobiliyatining pasayishi hamda o'quv jarayonida chalg'ituvchi omillarning ortishi bilan izohlanishi mumkin. Ikkinchi muhim ko'rsatkich sifatida dangasalik (65,3%) qayd etildi. Bu holat zamonaviy o'quvchilarda faol harakatni talab etuvchi faoliyatlarga nisbatan qiziqishning pasayishi, tezkor natijalarga intilish va darhol qoniqishga erishish istagining kuchayganini ko'rsatadi. Shuningdek, qat'iyatsizlik (55,4%) va xayolparastlik (52,9%) ko'rsatkichlari yoshlar orasida maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning yetarli darajada barqaror emasligi hamda real voqelikdan qisman chekinish tendensiyasini aks ettiradi.

Shu bilan birga, ijobiy xususiyatlar ham qayd etilgan: qiziquvchanlik (50,8%), mehnatsevarlik (46,3%) va faollik (44,7%) zamonaviy o'quvchilarda yangi bilimlarni egallashga intilish va ijodiy salohiyat mavjudligini tasdiqlaydi. Biroq ushbu ijobiy sifatlarning namoyon bo'lish darajasi ko'p jihatdan rag'batlantiruvchi pedagogik muhit hamda zamonaviy motivatsion yondashuvlarning samaradorligiga bog'liqdir.

Jadval 1

*Zamonaviy o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qayd etilgan xususiyatlari (%)*

<b>Shaxsiy xususiyatlari</b>	<b>%</b>	<b>Shaxsiy xususiyatlari</b>	<b>%</b>
Smartfonga ko'p berilib ketuvchi	78.9	O'ziga ishongan	45.9
Dangasa	65.3	Odamovi	28.3
Qat'iyatsiz	55.4	O'yinqaroq (digital o'yinlar)	40.2
Xayolparast	52.9	Muloqotchan (onlayn)	35.1
Qiziquvchan	50.8	Ishonuvchan	22.5
Mehnasevar	46.3	Betoqat	20.3
Faol	44.7	Past o'zlashtiradi	18.7
Tartibsiz	42.3	Ta'sirchan	18.9
Intizomli	40.6	Boshqa xususiyatlar	14.8

Salbiy jihatlar qatorida tartibsizlik (42,3%) hamda intizomlilik darajasining pastligi (40,6%) alohida qayd etildi. Mazkur holat o'quv jarayonida mustaqil ish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan qo'shimcha pedagogik choralarni kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi. Ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan e'tiborga molik natijalardan biri shundaki, o'ziga ishongan (45,9%) va onlayn muloqotga moyil, muloqotchan (35,1%) o'quvchilar ulushi nisbatan yuqori bo'lsa-da, real hayotdagi kommunikativ ko'nikmalar hamda jamoaga ijtimoiy integratsiyalashuv ko'rsatkichlari yetarli darajada yuqori emas. Buni odamovilik (28,3%) va ortiqcha ishonuvchanlik (22,5%) kabi xususiyatlar bilan izohlash mumkin, chunki mazkur omillar ayrim hollarda ijtimoiy faollikning cheklanishiga olib keladi. Umuman olganda, olingan ma'lumotlar zamonaviy o'quvchilar shaxsiy xususiyatlarida raqamli muhit ta'siri ostida shakllanayotgan yangi tendensiyalar mavjudligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ular ijtimoiy va ta'limiy jarayonlarda o'quvchilarning individual rivojlanish yo'nalishlarini hisobga olish zarurligini ham ko'rsatadi. Mazkur natijalar ta'lim jarayonini tashkil etishda psixologik-pedagogik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish, motivatsiya tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda o'quvchilarning ijtimoiy, axloqiy va shaxsiy rivojlanishi uchun qulay ta'lim muhitini yaratish lozimligini anglatadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari zamonaviy o'quvchining nisbatan aniq ijtimoiy-psixologik portretini namoyon etdi. Mazkur portretida shaxsiy xususiyatlar tizimida texnologiyaga yuqori darajadagi bog'liqlik, virtual muhitda muloqot qilishga moyillik, an'anaviy mehnatsevarlikdan ko'ra tezkor natijaga intilish hamda diqqatning tarqoqligi kabi omillar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu holat o'quvchi shaxsiyatida bilim olish jarayonining shakli va mazmuniga raqamli muhit ta'siri tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Klaster tasavvurlar strategiyasi asosida mazkur xususiyatlar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Birinchidan, texnologiyaga bog'liqlik onlayn muloqotdagi faollikni rag'batlantiradi, biroq ayni paytda an'anaviy tafakkur tartibining susayishiga ham olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, tezkor natijaga intilish ijodiy yechimlarni tez topish imkonini oshiradi, ammo qarorlarni chuqur tahlil qilish jarayonini qisqartiradi.

Uchinchidan, diqqatning tarqoqligi ma'lumotlarni uzoq muddatli xotirada saqlash samaradorligini pasaytiradi. Shu tarzda shakllangan zamonaviy o'quvchi portreti ta'lim jarayonida individual yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Bu esa pedagogik faoliyatda motivatsiya tizimini raqamli avlod psixologiyasiga moslashtirish, diqqatni jamlash hamda mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi metodlardan samarali foydalanish lozimligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

## XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim sifatini oshirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning o'quvchilar haqidagi tasavvurlari ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, ular bir tomondan zamonaviy o'quvchilarning intellektual salohiyati, texnologik savodxonligi va faolligini e'tirof etgan holda, ikkinchi tomondan ularning intizom darajasi, diqqatni jamlash qobiliyati hamda raqamli muhitga ortiqcha bog'liqligi bilan bog'liq muammolarni qayd etadilar. Bu esa zamonaviy o'quvchi shaxsiyatida ijobiy va salbiy xususiyatlarning murakkab uyg'unligi mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, boshlang'ich va yuqori sinf o'qituvchilari o'quvchilarni turlicha ijtimoiy-assotsiativ tasavvurlar asosida baholaydilar, bu esa ularning pedagogik yondashuvlari va ta'lim jarayonini tashkil etish uslublariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'proq emotsional qo'llab-quvvatlashga asoslangan yondashuvni afzal ko'rsalar, yuqori sinf o'qituvchilari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va kasbiy yo'nalishiga urg'u beradilar. Mazkur farqlar o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining mazmuni va dinamikasi yosh bosqichlariga qarab sezilarli darajada o'zgarishini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari zamonaviy o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarida raqamli texnologiyalar ta'siri yetakchi omil sifatida namoyon bo'layotganini tasdiqladi. Smartfon va internetdan ortiqcha foydalanish, diqqatning tarqoqligi hamda tezkor natijalarga intilish kabi holatlar ta'lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, qiziquvchanlik, faollik va ijodiy salohiyat kabi ijobiy xususiyatlar mavjudligi o'quvchilarning rivojlanish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi, biroq bu imkoniyatlar samarali pedagogik muhit va mos motivatsiya tizimi mavjud bo'lgan taqdiridagina to'liq namoyon bo'ladi. Klaster-assotsiativ tahlil natijalari o'qituvchilarning o'quvchi haqidagi psixologik obrazini aniqlashda muhim metodik vosita ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv orqali o'qituvchilarning yashirin psixologik qarashlari, stereotiplari va pedagogik yondashuvlari tizimli ravishda ochib berildi. Bu esa ta'lim jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarini rivojlantirish va o'zaro hamkorlik samaradorligini oshirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Mazkur natijalardan kelib chiqib, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'nalishida bir qator ilmiy-amaliy xulosalarga kelish mumkin. Avvalo, o'qituvchining o'quvchi haqidagi psixologik tasavvurlarini chuqur tahlil qilish va ularni pedagogik faoliyatda ongli ravishda hisobga olish zarur, chunki aynan ushbu tasavvurlar o'qitish uslubi va o'quvchi bilan munosabat xarakterini belgilaydi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida raqamli muhitning kuchayib borayotgan ta'sirini inobatga olgan holda, o'quvchilarning diqqatini jamlash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni kuchaytirish lozim. Bundan tashqari, motivatsiya tizimini zamonaviy o'quvchilar psixologiyasiga moslashtirish, ularning tezkor natijalarga intilish xususiyatidan konstruktiv foydalanish hamda ijobiy sifatlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Nihoyat, o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi samarali ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish orqali ta'lim sifatini oshirishning barqaror mexanizmlarini yaratish zarur.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ablakulov Sh.D. Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari: avtoref. – T.: TDPU, 2024. – 47 b.
2. Borko H., Lalik R., Tomchin E. Student teachers' understandings of successful and unsuccessful teaching // *Teaching and Teacher Education*. – 1987. – Vol. 3, No. 2. – P. 77–90.
3. Botirova D.B. Pedagoglarda kasbiy so‘nish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: avtoref. (PhD). – T.: TDSHU, 2024. – 64 b.
4. Dalin P. Changing the school culture. – London, 1993.  
Giallo R., Little E. Classroom behaviour problems: The relationship between preparedness, classroom experiences, and self-efficacy in graduate and student teachers // *Australian Journal of Educational & Developmental Psychology*. – 2003. – Vol. 3, No. 1. – P. 21–34.
5. Hajisoteriou C., Karousiou C., Angelides P. Successful components of school improvement in culturally diverse schools // *School Effectiveness and School Improvement*. – 2018. – Vol. 29, No. 1. – P. 91–112.
6. He X., Wang Y. The construction of teacher’s teaching quality evaluation system based on the teacher–student cooperation model // *SHS Web of Conferences*. – 2024. – Vol. 181. – Article 04036.
7. Le H., Janssen J., Wubbels T. Collaborative learning practices: Teacher and student perceived obstacles to effective student collaboration // *Cambridge Journal of Education*. – 2018. – Vol. 48, No. 1. – P. 103–122.
8. Muijs D. Improving schools through collaboration: A mixed methods study of school-to-school partnerships in the primary sector // *Oxford Review of Education*. – 2015. – Vol. 41, No. 5. – P. 563–586.
9. Narzikulova F.B. O‘qituvchining kasbiy imiji salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik sharoitlarini takomillashtirish: DSc diss. avtoref. – T.: Toshkent, 2022. – 67 b.
10. Nurmatov N.N. Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari: avtoref. – T.: O‘zMPU, 2025. – 56 b.
11. Olimova F.A. Bo‘lajak pedagoglarda stressga barqarorlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: PhD diss. avtoref. – B.: BuxDU, 2024. – 63 b.
12. Shoyimova Sh.S. Oliy tibbiy ta’lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlari: avtoref. – T.: TDPU, 2024. – 74 b.
13. Wimberley C.E. Teacher collaboration and student achievement. – Lindenwood University, 2011.  
Wubbels T., Brekelmans M. Two decades of research on teacher–student relationships in class // *International Journal of Educational Research*. – 2005. – Vol. 43, No. 1–2. – P. 6–24.
14. Xu L., Yang Q. Modeling and analysis on teacher–student relationship // *Discrete Dynamics in Nature and Society*. – 2019. – Vol. 2019, No. 1. – Article 5481926.
15. Абдуллаева Ш.Х. Профессионал компетентликнинг ижтимоий-психологик асослари. – T.: “Фан ва технология”, 2017. – 176 б.
16. Абдулмажидова М.Д. Ўқувчилар касбий танловининг ижтимоий-психологик омиллари: дисс. автореф. – T., 2025. – 53 б.
17. Асадов Ю.М. Исследование влияния личностных свойств учителя на качество и компоненты педагогического труда // *Психологические аспекты совершенства подготовки учительских кадров в педвузах и университетах в условиях непрерывного образования: тез. докл. респ. науч.-практ. конф. (11–12 апреля 1991 г., Ч. I)*. – Ташкент, 1991. – С. 44–46.
18. Баратов Ш.Р. Психологическая служба в образовании Узбекистана и психологическое благополучие учащихся // *Психология XXI столетия*. – 2023.

19. Жабборов А.М. Психологический анализ этнического сознания в воспитании // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – Vol. 4, TMA Conference. – С. 641–647.
20. Расулов А.И. Ўқитувчи шахсининг тарбиячи сифатида ўқувчилар билан ўзаро муносабат даражалари: дисс. – Тошкент, 2001. – 177 б.
21. Сабирова Д.А. Методы исследования социального интеллекта учителя // Психология XXI столетия. – 2017. – С. 345–349.
22. Тошматов Б.Э. Педагог касбий фаолиятини оптималлаштиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари: дисс. автореф. – Т., 2025. – 55 б.
23. Тураева Д.Р. Педагог кадрлар фаолияти услубининг психологик хусусиятлари. – Т.: “Mashhur-press”, 2019. – 188 б.
24. Хайитов О.Э. Моделирование психологической компетентности руководителя: концептуальный эмпирический анализ // Academic Research in Educational Sciences. – 2020. – No. 3. – С. 526–540.
25. Ҳайитова З.М. Бошланғич синф ўқитувчилари касбий фаолиятини шакллантиришнинг педагогик-психологик омиллари: дисс. автореф. – Т., 2025. – 51 б.
26. Шакарбоева Ш.А. Умумий ўрта таълим мактабларининг бўлғуси педагогларида ўз устида ишлаш фаолиятини тарбиялашнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари: дисс. автореф. – Ж., 2022. – 51 б.
27. Эшметов Ш.А. Устоз-шогирд муносабатларининг ижтимоий-психологик феноменлари: дисс. – Тошкент: М. Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, 2005. – 147 б.

## ILMIY TAQRIZ

Mazkur maqola ta'lim sifatini oshirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik hamkorlik masalalarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bugungi kunda dolzarb hisoblangan ilmiy yo'nalishlardan birini qamrab oladi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim tizimida raqamli muhit ta'siri ostida shakllanayotgan o'quvchi shaxsiyati hamda o'qituvchilarning bu haqdagi tasavvurlari chuqur tahlil etilgan. Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, unda ta'lim sifatini oshirish muammosi faqat institutsional yoki metodik jihatlar bilan cheklanmay, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar prizmasida ko'rib chiqilgan. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar ta'sirida o'quvchilar shaxsiyatida yuz berayotgan o'zgarishlarni aniqlash va ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning ilmiy yangiligi o'qituvchilarning o'quvchi haqidagi tasavvurlarini klaster-assotsiativ tahlil asosida tizimlashtirish va ularning ijtimoiy-psixologik mazmunini ochib berishda namoyon bo'ladi. Tadqiqotda boshlang'ich va yuqori sinf o'qituvchilarining yondashuvlari o'rtasidagi farqlar aniqlangan bo'lib, bu ta'lim jarayonida differensial yondashuv zarurligini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda olingan natijalar pedagogik faoliyatni takomillashtirish, motivatsiya tizimini zamonaviy o'quvchi psixologiyasiga moslashtirish hamda o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha muhim tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Metodologik jihatdan maqolada kontent-tahlil, klaster-assotsiativ yondashuv hamda semantik differensial metoddan foydalanilgani tadqiqotning kompleks xarakterini ta'minlaydi. Respondentlar sonining yetarli (1137 nafar) bo'lishi natijalarning ishonchligini oshiradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini chuqurroq asoslash uchun statistik tahlil usullaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Maqolaning kuchli tomonlari sifatida uning aniq tuzilishi, mantiqiy izchilligi, boy empirik bazasi hamda nazariy va amaliy jihatlarining uyg'unligi qayd etilishi mumkin. Ayniqsa, zamonaviy o'quvchi shaxsiyatining ijobiy va salbiy xususiyatlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish maqolaning ilmiy qiymatini oshiradi. Shu bilan birga, ayrim kamchiliklar ham mavjud. Xususan, ayrim joylarda natijalar talqini umumlashtirilgan xarakterga ega bo'lib, ularni yanada chuqurlashtirish mumkin. Shuningdek, xorijiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlilni kengaytirish maqolaning ilmiy asoslanganligini yanada mustahkamlagan bo'lar edi. Umuman olganda, maqola dolzarb ilmiy muammoni qamrab olgan, yetarli darajada asoslangan va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqot hisoblanadi. Yuqoridagi mulohazalarni inobatga olgan holda, mazkur maqolani kichik tahririy tuzatishlar bilan ilmiy jurnalda chop etishga tavsiya etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

### Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Pedagogical & Psychological Studies* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal's publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

**This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.**